

“QONUN HUJJATLARI IJROSI VA UNDAGI DAVLAT ORGANLARINING RO’LI VA AHAMIYATI”

*Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti
2-bosqich 423-guruh talabasi*

Jo’rayev Umidjon

*Ilmiy rahbari Termiz davlat universiteti
yuridik fakulteti jinoyat huquqi va fuqorolik
huquqi kafedrasi o’qituvchisi*

Tursunov Behruz Normurod o’g’li

Annotatsiya: O’zbekiston Respublikasida qonun hujjatlarining ijrosini ta’minlash va davlat tomonidan bu jarayon ustidan nazorat qilish tizimi o’rganilib chiqilgan. Davlat nazorati ushbu hujjatlarning amalda bajarilishini ta’minlashda muhim va asosiy ahamiyat kasb etadi, chunki samarali nazorat tizimi huquqiy tartibni mustahkamlashga xizmat qiladi va qonunbuzarliklarni to’xtatish va oldini olish imkonini beradi. Bundan tashqari, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida qonun hujjatlarini ijro etish mexanizmlarini takomillashtirish bo’yicha qo’llanilgan ilg’or tajribalar ham misol sifatida keltirib o’tilgan. AQSH, Janubiy Koreya, Singapur tajribalarida qonun hujjatlari ijrosini ta’minlashdagi bir qator ishlar ham amalga oshirilganligi ko’rsatib o’tilgan. Ushbu maqolada qonun hujjatlari va uning ahamiyati, O’zbekiston qonun hujjatlarini ijrosini ta’minlash jarayoni, jahon miqyosida qonun hujjatlarini ta’minlash kabilar batafsil yoritilgan.

Kalit so’zlar: *O’zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlari va ularning davlat nazorati, AQSH, Janubiy Koreya va Singapur tajribalari, O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari ijrosini ta’minlashdagi yutuqlar va muammolari.*

Qonun - inson jamiyat va davlat manfaatlarini nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirish hamda tartibga solishning asosiy vositasi hisoblanadi. Qonun bu davlat oliy vakillik organining eng yuqori kuchga ega bo’lgan hujjati hisoblanadi. Qonun davlat huquqi tizimining asosini tashkil qiladi. Qonunni uni qabul qilgan organdan boshqa hech kim o’zgartirish, bekor qilish va yangidan tayyorlash huquqiga ega emas. Qonunlar odatda, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo’lgan organlar tomonidan ishlab chiqiladi. Qonunchilik tashabbusi – bu qonun loyihalarini qonun chiqaruvchi organ muhokamasiga kiritish huquqidir.

Qonun hujjatlari – bu davlat tomonidan qabul qilingan, jamiyat hayotini yaxshilashga va tartibga solishga qaratilgan rasmiy hujjatlar hisoblanadi. Ushbu

hujjatlar huquqiy normalarni belgilab beradi, fuqarolar, tashkilotlar va davlat organlari uchun majburiy bo'lgan qoidalarni o'rnatadi. Davlat taraqqiyotida ular asosiy rol o'ynab, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida tartibni saqlash, adolatni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlashda davlat nazorati eng muhim ahamiyatga egadir. Bu nazorat qonunlarning samarali bajarilishini kuzatish, huquqiy tartibni mustahkamlash va xizmatlar sifatini yaxshilashga ko'maklashadi. Shuningdek, davlat nazorati orqali qonunbuzarliklarni to'xtatish va oldini olishga hamda aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlarni yanada sifatli qilish uchun xizmat qilib beradi.¹

Hozirgi zamon davlatlarida qonunchilik tashabbusi huquqi, odatda, parlament a'zolari, parlament qo'mitalari, hukumat, davlat boshqaruvi rahbari va ayrim maxsus organlar, idoralar yoki tashkilotlarga taqdim etish orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko'ra, qonunchilik tashabbusi huquqiga Prezident, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar Mahkamasi va davlat hokimiyatining oliy vakillik organi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Bosh prokurori ham o'z vakolatlari doirasida qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli.²

Qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash – bu qabul qilingan qarorlar va normativ-huquqiy hujjatlarning amaliyotda bajarilishini nazorat qilish va uni amalga oshirish jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon bir nechta asosiy bosqichlardan iborat bo'ladi.

Tushuntirish va targ'ibot – Yangi qabul qilingan qonun hujjatlari va qarorlar haqida aholiga ma'lumot va xabarlar berish, ularning mazmuni hamda ahamiyatini ommaga yetkazish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda keng jamoatchilikni jalb qilish orqali hujjatlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlashning eng muhim jarayonlaridan biri sifatida aytib o'tsak bo'ladi.

Ijro mexanizmlarini ishlab chiqish – Qonun hujjatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan mexanizmlar va tartib-qoidalarni ishlab chiqishdagi jarayoni hisoblanadi. Ushbu bosqich qonun va qarorlarning to'g'ri ijro etilishi uchun zarur resurslar, chora-tadbirlar va amaliy usullarni o'z ichiga olishi kerak.

Monitoring va nazorat – Qonunlar va qarorlarning bajarilishini muntazam ravishda kuzatish va nazorat qilish bosqichi hisoblanadi. Maxsus nazorat organlari

¹ “Huquqshunoslikning umumiy asoslari” (muallif: I.M.Yusupov)-Huquqshunoslikning umumiy tamoyillari va qonun hujjatlari ustidan davlat nazorati.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

qonunlarning ijrosi samaradorligini baholaydi va yuzaga kelgan muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan chora tadbirlarni ko'radi.

Hisobot va tahlil – Amalga oshirilgan ishlar natijalari bo'yicha hisobotlar tayyorlab chiqilib, chuqur tahlil qilinadi. Ushbu bosqichda qonunlarning ijrosida yo'l qo'yilgan xatolar va kamchiliklar aniqlanadi, ularga tuzatishlar kiritish hamda yanada samarali bo'lgan chora tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi.

Muddatidan kech bajarilgan topshiriqlar soni	Farmonlar bo'yicha	Qarorlar bo'yicha	Farmoyishlar bo'yicha	Bayonlar bo'yicha
1859 ta yoki (3,7 %)	290 ta	660 ta	28 ta	881 ta ³

O'zbekiston Respublikasida, qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash jarayonida Prezident, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining alohida o'rni bor. Prezident mana shu jarayonning umumiy nazoratini olib boradi va uning samarali amalga oshirilishini ta'minlab beradi. Oliy Majlis qonunlarni qabul qilishdan tashqari, ularning ijrosi bo'yicha tahlil va nazoratni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qonunlarini va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarini ijrosini ta'minlaydigan davlat organi. Bosh prokuratura, Adliya vazirligi kabi nazorat organlari orqali qonun ijrosini kuzatish va uning samaradorligini oshirishda eng asosiy ahamiyatga ega.⁴

Qonunlarning ijrosi va huquqiy nazoratni amalga oshirishda Oliy Majlisning roli ham muhim hisoblanadi. Oliy Majlis, Prezident tomonidan taqdim etilgan qonun loyihalari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ko'rib chiqish va muhokama qilish hamda tasdiqlash bilan shug'ullanadigan davlat organi. Agar qonun hujjatlarining ijrosi ta'minlanmasa yoki qonun hujjatlari ijrosi buzilish holati kuzatiladigan bo'lsa, Oliy Majlis bu muammolar bo'yicha tegishli choralar ko'radi.

Vazirlar Mahkamasi esa, hukumat organi sifatida ijro hokimiyatining faoliyatini nazorat qiladi. Har bir vazirlik va davlat agentligi o'z faoliyatini Vazirlar Mahkamasiga hisobot berib amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi, Prezident va Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan strategik dasturlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishni nazorat qiladi. Vazirlar Mahkamasi bunday dasturlarning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash uchun mas'uldir va bu jarayonda qonunlarga to'liq rioya qilinishini nazorat qiladi. Dasturlarni amalga oshirish jarayonida har bir davlat organining faoliyati konstitutsiya va qonunlarga muvofiq bo'lishi zarur.

³ <https://ijro.uz>

⁴ <https://lex.uz>

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi davlat organlarining qonun hujjatlarining ijrosi bo'yicha monitoring olib boradi va muntazam ravishda hisobotlarni Oliy Majlis va Prezidentga taqdim etadi. Ushbu monitoring jarayoni davlat organlarining faoliyatini yanada aniq va oson qilishga yordam beradi. Hisobotlar orqali Vazirlar Mahkamasi amalga oshirilgan ishlarning holatini baholab, davlat organlarining samarali faoliyat olib borishini ta'minlaydi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali nazorat tizimlari davlatning qonunlarga bo'lgan hurmatini oshiradi, qonun ijrosining shaffofligini ta'minlaydi va jamiyatda adolat va tartibni mustahkamlaydi. Bu yondashuvlar davlatlarni o'z huquqiy tizimlarini yanada rivojlantirishga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga imkon beradi. Quyida ba'zi rivojlangan mamlakatlarning tajribasini keltirib o'tishimiz mumkin:

AQShda elektron monitoring tizimi- AQShda qonun hujjatlari ijrosini ta'minlashda innovatsion texnologiyalardan keng ko'lamda foydalaniladi. Masalan, soliq qonunchiligi ijrosini nazorat qilish uchun elektron monitoring tizimlari ishlab chiqilgan va ushbu tizimlar orqali soliq to'lovchilarning hisobotlarini real vaqt rejimida kuzatiladi, bu esa qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Janubiy Koreyada hukumat va xususiy sektor hamkorligi- Janubiy Koreyada qonun hujjatlari ijrosini ta'minlashda hukumat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik eng asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan, mehnat qonunchiligi bo'yicha xususiy kompaniyalar vakillarini davlat nazorati jarayoniga jalb qilish amaliyoti ham mavjud. Bu tizim qonunlarga rioya qilishni ta'minlash bilan birga, korxonalar va davlat o'rtasidagi ishonchni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Singapurdagi jazo samaradorligi- Singapurda qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash uchun jazo tizimining qat'iy va shaffofligi asosiy omil hisoblanadi. Masalan, ekologik qonunbuzarliklar uchun yirik jarimalar va ijtimoiy xizmat majburiyati belgilab qo'yilgan. Bunday yondashuv qonunbuzarliklarning kamayishiga asosiy omil hisoblanadi.

Yuqoridagi misollar O'zbekistonning huquqiy tizimini takomillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu tajribalarni milliy xususiyatlarga moslashtirish muhimdir.⁵

Shu o'rinda aytishimiz mumkinki, qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash jarayonida bir qancha yutuqlarimiz mavjud. Bularga misol qilib, so'nggi yillarda mamlakatimizda qonunchilik bazasini tizimlashtirish, normativ huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Qonun ijodkorligi faoliyatini tubdan takomillashtirish, amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy

⁵ <https://parliament.gov.uz>

jihatidan ta'minlanishini takomillashtirish maqsadida Senat tomonidan qator qonunlarning ijro holatini, huquqni qo'llash amaliyoti o'rganildi va qonunosti hujjatlarining qabul qilinish yuzasidan monitoringlar amalga oshirildi. Shuningdek, elektron hujjat almashinuvi tizimi davlat organlari va tashkilotlar o'rtasida hujjatlar almashinuvi jarayonlarini raqamlashtirgan holda, qonun hujjatlari ijrosini samarali kuzatish imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu tizim bir qancha afzaliklarga ega. Hujjatlar elektron shaklda ro'yxatga olinadi, bu esa ularga oson kirish imkonini beradi va hujjatlar xavfsiz tarzda oluvchilarga yuborilishi va yetkazilishini taminlaydi, bu esa ularning qayta ishlanishi yoki yo'qolish ehtimolini kamaytirib beradi. ⁶

Shu o'rinda ta'kidlashimiz lozimki qonun hujjatlari ijrosini ta'minlashdagi muammolar ham yo'q emas. O'zbekistonda qonun hujjatlari ijrosini ta'minlashda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularni hal etish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Nazorat mexanizmlarining sustligi- amaldagi qonunlar va normativ hujjatlar ijrosini ta'minlashda nazorat va monitoring tizimi yetarli darajada samarali emas. Ko'pincha hujjatlarning qabul qilinishi bilan ular ijrosining real hayotda qanday amalga oshirilayotgani o'rtasida katta tafovut mavjud. Bu esa davlat boshqaruvi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kadrlar malakasining yetarli emasligi- qonun hujjatlarining to'liq va sifatli ijro etilishi ko'p jihatdan ijrochilarning malakasiga bog'liq. Afsuski, ba'zi hollarda davlat xizmatchilari yoki mas'ul shaxslarning huquqiy bilimlari yetarli darajada bo'lmaydi, bu esa qonun talablarini noto'g'ri tushunishga yoki bajarishga olib keladi.

Qonunchilik bazasining murakkabligi- ba'zan qonunlar bir-biriga zid kelishi yoki ortiqcha byurokratik talablarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu holatlar hujjatlarning amaliyotda qo'llanilishini qiyinlashtiradi va qonunlar ijrosi samaradorligini pasaytiradi.

Jamoatchilik nazoratining sustligi- fuqarolarning qonun ijrosi jarayonida ishtirok etishi va nazoratni amalga oshirishi mexanizmlari hali ham to'liq shakllanmagan. Jamoatchilik nazoratining sustligi ayrim mas'ul shaxslarning qonun buzilishlariga yo'l qo'yishiga sabab bo'ladi.

Moliyaviy va texnik resurslar yetishmovchiligi- ba'zi qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik baza yetarli darajada rivojlanmagan. Bu, ayniqsa, hududiy darajada qonun ijrosi masalalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Axborot yetkazishdagi kamchiliklar- ko'pchilik fuqarolar qonun hujjatlaridan to'liq xabardor emas. Qonunchilikka oid yangiliklar keng jamoatchilikka yetarli darajada tez va aniq tarzda yetkazilmaydi, bu esa huquqiy savodxonlik darajasini pasaytiradi.

⁶ <https://kun.uz>

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Qonun va uning ijrosi davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Yurtimizda qonunlar ijrosini samarali ta'minlash borasida jiddiy yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, mavjud muammolarni hal qilish orqali bu tizimni yanada rivojlantirish zarur. Jahon tajribasidan foydalanish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va huquqiy savodxonlikni oshirish milliy qonunchilik tizimini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining roli va ahamiyati katta hamda ular qonunchilik jarayonlarini nazorat qilib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. <https://ijro.uz> 2022-yil 23-iyun holatiga ko'ra kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari soni.
3. <https://lex.uz>
4. "Huquqshunoslikning umumiy asoslari" (muallif: I.M.Yusupov)- Huquqshunoslikning umumiy tamoyillari va qonun hujjatlari ustidan davlat nazorati.
5. <https://kun.uz>
6. <https://parliament.gov.uz>